Taraqqiyot spektri
ILMIY JURNALI
Vol 2 № 6 2026

Tog’ay Muroding „Oydinda yurgan odamlar“ qissasida aks etgan qadriyatlar va (Muhabbat inson hayotining eng yuksak qadriyati) sifatida

Sadriddinova Sarvinoz Obiddin qizi
Namangan davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistraturu talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada To‘g‘ay Murodning «Oydinda yurgan odamlar» qissasi tahlil qilinadi. Asarda Qoplon va Oymomo timsolida insoniy mehr-muhabbat, sadoqat, sabr-toqat hamda farzand sog‘inchi kabi hayotiy masalalar badiiy yoritilgan. Muallif qahramonlarning ruhiy kechinmalarini nozik va shoirona tasvirlar orqali ochib beradi. Qissada muhabbat inson hayotining eng yuksak qadriyati sifatida talqin etilib, o‘zaro mehr va sadoqat barcha sinovlarni yengib o‘tishga qodir kuch ekanligi ko‘rsatiladi. Asarning xalqona uslubi, obrazlarning samimiyligi va badiiy mahorati uning o‘zbek adabiyotidagi muhim o‘rnini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: To‘g‘ay Murod, «Oydinda yurgan odamlar», muhabbat, sadoqat, farzandsizlik, Qoplon, Oymomo, badiiy tasvir, xalqona uslub, o‘zbek adabiyoti, fotiha to‘yi, milliy qadriyatlar, kuyov odobi, hayo, kamtarlik, oilaviy marosimlar, urf-odatlar, badiiy tasvir, milliy tarbiya, o‘zbekona an’analar.

Kirish.

— Quloq sol, momosi, quloq sol. Qayerdandir odam ovozi kelyapti...

Sayrak adirda yonboshlab yotmish bobomiz, momomizga shunday dedilar.

Bobomiz og‘izlarini angraygannamo ochdilar. O‘ng quloqlarini yellar yelmish tarafga tutdilar.

Yellar, ovozlarni yorqin olib kelmadilar.

Bobomiz o‘ng kaftlarini quloqlari sirtiga tutdilar. Yelpana qildilar. Nafas olmadilar. Bor vujudlarini berib quloq soldilar.

Bobomiz shunda-da bir nimani eshitmadilar. Chuqur tin oldilar.

Taraqqiyot spektri

Bobomiz oydinga tikildilar.

— Manovi yoqdan shekilli... — dedilar. — O‘zi, vaqting xushmi, momosi? Eson-omon yuribsanmi? To‘rt muchaling butmi?.. deb boshlanuvchi mazkur asar hammaning qalbidan joy olgan va yig’latgan qissa hisoblanadi.Quyidagi fikrlar bunga yaqqol dalildir.[1]

QISSA HAQIDA

To‘g‘ay Murodning birgina «Oydinda yurgan odamlar» qissasida, yanglishmasam, adibga xos bo‘lgan fazilatlar yanada yaqqolroq seziladi. Asar nima haqida? Bir qarashda qissa adabiyotimizda ko‘p aytilgan farzandsizlik muammosiga bag‘ishlangandek tuyuladi. Aslida, unday emas. Aslida, uslub jihatidan xalq dostonlariga o‘xshab ketadigan bu qissani muhabbat haqidagi bir kuy, to‘g‘rirog‘i, muhabbatga suyanib, barcha hayot dovullarini yengib o‘tgan ikki dil, ikki pok inson haqidagi tipik bir qo‘shiq desak yarashadi. Yaxshi qo‘shiq mungli bo‘ladi, biroq bu mung ko‘ngilga g‘ashlik solmaydi, bil’aks, suv ichganday ravshan qiladi.

ODIL YOQUBOV[2]

Sharqning buyuk dostonlari «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin»lar, «Tohir va Zuhro»lar necha yuz yillardan beri yashab keladi. Ularda bir-biriga yetisholmay, muhabbat yo‘lida jon bergan baxtsiz oshiq-ma’shuqlar tasvirlanadi.

To‘g‘ay Murod ham doston yozdi. Otini «Oydinda yurgan odamlar» qo‘ydi.

Qissa nomini o‘qishingiz bilanoq sizni allaqanday sirli-sehrli oydin kecha bag‘riga oladi. Ichingizga ajib bir nur o‘rmalab kiradi. Dil-dilingizni yoritib yuboradi.

Qissada Qoplon bilan Oymomo farzand ilinjiда tunni tongga, kunni oyga, oyni yilga ulab yashaydi. Qoplon xotinini Momosi desa, Oymomo erini Bobosi deb chaqiradi. Ular yo‘q bolaning bobosi, yo‘q bolaning momosi bo‘lib, yillarni yillarga ulaydi. Bir-biriga mo‘ltirab yashaydi. Ular uchramagan doktor, ular ko‘rinmagan tabib qolmaydi. Ammo na doktordan, na tabibdan naf ko‘radi.

[1] To‘g‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.

[2] Odil Yoqubov. Oydinda yurgan odamlar qissasi haqida // To‘g‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: Sharq, 2004.

Taraqqiyot spektri

To‘g‘ay Murod chol-kampir hayotini g‘oyat nozik, g‘oyat shoirona tasvirlaydi. Chol-kampirning o‘zaro mehr-muhabbatini qo‘shiqdek kuylab beradi.

To‘g‘ay Murod bir-birini Bobosi, Momosi deya atab umr o‘tkazayotgan bir juft pokiza insonni oydindagi oy nuriga o‘rab tasvirlaydi. Oqibat, ushbu juftning o‘zi ham, so‘zi ham, turish-turmushi ham oyning kumush nurlariga yo‘g‘rilib ketadi.

To‘g‘ay Murodning kuyib, yonib, o‘rtanib bitgan, ba’zan faryod urib bitgan «Oydinda yurgan odamlar» qissasini «Muhabbat qo‘shig‘i» deb atagim keldi.

SAID AHMAD[3]

Asosiy qism:

Mazkur qissaning boshlanish qismi insonni diqqatini tortadi:

— Manovi yoqdan shekilli... — dedilar. — O‘zi, vaqting xushmi, momosi? Eson-omon yuribsanmi? To‘rt muchaling butmi?..

Bir biriga bo’lgan e’tibor,,muhabbat , sadoqat va g’amxo’rlikni ko’rishimiz mumkin.

«Ey, xudo, sen o‘zi qayerdasan, qaylardasan? — deya xayollandi. — Sen o‘zi, bormisan? Bor bo‘lsang, javob ber, yuzaga chiq! Mendayin bir sho‘rpeshona bandang bilan yuzma-yuz bo‘l! Mendayin bir xokisor bandang holini ko‘r!

Ayt, o‘zi, men bandangni nima uchun yaratding? Shu bechora-da dunyoda yursin, shu g‘arib-da o‘z kunini o‘zi ko‘rib yursin, deya yaratdingmi?

Unda, men bandangni-da xor qilma-da, ey, xudo, men bandangni-da yolg‘iz qilma-da, ey xudo!

Bandangni yarat-yarat, pushti kamari bilan yarat-da, ey, xudo!

Ey, xudo, esimni taniganimdan buyon xudoga sig‘inib keldim, xudoga topinib keldim, xudoga ishonib keldim.

Shunday ekan, har ne qilsang qil, pushti kamarli qil-da, ey xudo!

Dunyodan necha-necha podsholar o‘tdi, necha-necha hokimlar o‘tdi, necha-necha kattalar

[3] Said Ahmad. Oydinda yurgan odamlar qissasiga so‘zboshi // To‘g‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: Sharq, 2004.

Taraqqiyot spektri

o‘tdi...

Pushtsiz umrim mobaynida ko‘p-ko‘p podsholardan qaytdim, ko‘p-ko‘p kattalardan qaytdim...

Ammo... ammo yolg‘iz sendan qaytmadim, ey, xudo!

Dilimda-da xudo bo‘ldi, tilimda-da xudo bo‘ldi!

Shunday ekan, har ne qilsang qil, pushti kamarli qil-da, ey, xudo!

Bandalaring qay bir podsholarga sig‘inmadi, bandalaring qaybir kattalarga sig‘inmadi.

Bandalaring nimalarga sig‘inmadi, bandalaring nimalarga topinmadi...

Bandalaring dinidan qaytdi, bandalaring xudosidan qaytdi, bandalaring imonidan qaytdi!

Sen aynan ana shu bandalaringni zurriyotli qilib yaratding, ey, xudo![4]

Qissaning ushbu parchasida Qoplon obrazining ichki kechinmalari va ruhiy iztiroblari chuqur tasvirlangan. U uzoq yillardan buyon farzand ko‘rish orzusida yashab, bu armon bilan kurashadi. Qahramonning Xudoga qilgan iltijolari uning qalbidagi og‘riq, umid va ishonchni yaqqol namoyon etadi. U o‘zini taqdir sinoviga duch kelgan inson sifatida his qiladi va Yaratgandan zurriyot so‘raydi. Monolog davomida insonning hayotdagi eng katta orzularidan biri – avlod qoldirish, oilaning davomchisini ko‘rish istagi badiiy ifodalanadi. Muallif qahramonning iztiroblarini samimiy va ta’sirchan tarzda yoritib, o‘quvchini uning ruhiy holatiga hamdard qiladi. Ushbu holatda ham ayolini o’ylaydi mendan ko’ra unga qiyin deydi.

Xulosa

To‘g‘ay Murod ushbu qissada farzandsizlik dardini oddiy maishiy muammo sifatida emas, balki inson qalbining eng og‘riqli kechinmalaridan biri sifatida tasvirlaydi. Qoplon va Oymomoning bir-biriga bo‘lgan muhabbati, sadoqati va mehribonligi asarning asosiy g‘oyasini tashkil etadi. Qahramonlarning sabr-toqati va umid bilan yashashi insoniy fazilatlarning yuksak namunasi sifatida gavdalanadi. Asar o‘quvchini mehr-muhabbat, oilaviy qadriyatlar va insoniy bardosh haqida chuqur mushohada yuritishga undaydi.

[4] To‘g‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.

Taraqqiyot spektri

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘g‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.

2. Said Ahmad. Oydinda yurgan odamlar qissasiga so‘zboshi // To‘g‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: Sharq, 2004.

3. Odil Yoqubov. Oydinda yurgan odamlar qissasi haqida // To‘g‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: Sharq, 2004.

4. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.

5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

6. Solijonov Y. O‘zbek adabiyotida badiiy mahorat masalalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.

7. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2010.

8. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

9. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. – Toshkent: Fan, 2006.

10. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.

Taraqqiyot spektri